

HAJMAN KICHIK HIKOYALARDA MA'NAVY-AXLOQIY MUAMMOLAR TALQINI

Ruziboyev Bobir Mirzakulovich

**JDPU mustaqil tadqiqotchisi Samarqand viloyati Bulung'ur tumani 69-maktab ona tili
va adabiyot fani o'qituvchisi bobirruziyev16@gmail.com**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21306744>

Annotatsiya: Ushbu maqolada istiqloq davri ijodkorlarining kichik hajmli hikoyalari misolida ma'naviy-axloqiy muammolar talqini aks ettirilgan. Shuningdek, yozuvchining o'ziga xos mahorati, obrazlar xususiyati, xarakterlarning serqirra shakllari, insoniy munosabatlar ham tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: kichik hajmli hikoya, qahramon, roviy, xarakter, an'anaviy realistik metod.

Istiqloq davri hikoyanavis ayol ijodkorlaridan yana biri Ma'suma Ahmedova bo'lib, uning hajman kichik hikoyalarida ham ma'naviy-axloqiy muammolar talqini har tomonlama keng aks ettirilganligini ko'rish mumkin. Xususan, yozuvchining "Begim kunlar" nomli hikoyasida insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat, shukronalik masalalariga murojaat qilingan va kitobxon e'tiborini aynan mana shu masalalarga qarata olgan. Hikoya bosh qahramon Shahodatning keliniga qo'pol muomala qilishidan boshlanadi:

– Oyi, qarasangiz bo'lmaydimi. Bunaqada bor mayizni yeb bitiradi-ku, – juvon ta'naomuz kampirga qaradi.

– Ha, endi men senga sholipoyadagi qo'riqchi bo'ldimmi! – kampir iddao bilan yuzini ters burdi. – Men senga qaynona emas, kelinman, kelin!"¹

Hikoyada qo'llangan xotira prinsipi ushbu personajning hayoti juda og'ir kechganligini ko'rsatadi. Uning uch marotaba turmush qurib, so'nggisidan baxt topganligini eslashi, o'z farzandi bo'lmagach, uchinchi turmush o'rtog'ining yolg'iz o'g'lini boqib, o'stirib, uylantirib, shundan rohat ko'rayotganligi uning hozirgi kuniga shukrona tuyub yashayotganini ko'rsatadi.

"Kampir ko'zini olib, yiroqlarga tikildi. Olis tog'lar tiniqlashdi, yaqinlashdi.

– Oyi, ko'yolingizni yechib bering, kir yuvyapman.

"Ha, qilg'i o'ziga ta'sir qilibdi-da, – kampir yengil tortdi. – Hay, inson bolasi-da, fe'li bor, tili bor..."

Kampir keliniga indamadi. "Darrov rizolik bildirsang, boshga chiqadi". Kelin qaynona sukutidan sarosimalandi. So'zga og'iz juftladi-yu, aytolmadi. Kampir kelinning holatini tushundi.

– Hay, Xudoyimga shukur, – kampir xarrakdan qo'zg'aldi. Chumchuqlar yana "gurr" etib, peshayvonga yopirildi.

– Hay, ketlaring-a! – kampir ayvon tomon hassasini o'qtalarkan, zimdan kelin tarafga nazar soldi. Kelin ko'rinmadi"².

Qaynona-kelin munosabati o'zbek millatida qadriyat darajasiga ko'tarilgan masalalardan, shu bilan birga og'riqli muammo bo'lganligi uchun mazkur mavzu badiiy asarlar uchun ham dolzarbligini yo'qotmaydi. Mazkur hikoyadagi qaynona va kelinning o'z o'rnida bir gapdan qolishi hamda shu orqali bir-biriga yon bosishi vaziyatning yaxshilanishiga xizmat qilganligi

¹ Ахмедова М. Хикоялар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа уйи, 2012. – Б. 46.

² Ахмедова М. Хикоялар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа уйи, 2012. – Б. 50.

qahramonning o'y-xayollari, o'tmish haqidagi xotiralari va uning xatti-harakati orqali aks ettirilgan.

So'nggi davr ijodkorlaridan biri bo'lgan Abbos Said qalamiga mansub "Karomat" hikoyasida esa insonlar o'rtasidagi salbiy illatlardan bo'lgan baxillik, ichqoralik, ko'rolmaslik tufayli butun oilaning ahvoli yomonlashganligi, bir insonning taqdiri fojea bilan yakun topganligi xususida so'z boradi. Hikoyaning bosh qahramoni Karomat ismli qiz bo'lib, uning oilasidagi notinchliklar, ya'ni dadasining har kuni ichib kelib, uyda janjal ko'tarishi, onasini kaltaklashi qizning hayotidan zada bo'lib o'z joniga qasd qilishigacha olib keladi. Otasining bu holatga tushib qolishiga sabab bo'lgan mash'um voqea esa hikoyaning yana bir epizodik qahramoni Kamol ota tomonidan so'zlab beriladi. Uning aytishicha, Sobirning – Karomatning otasining bunday ayanchli holga tushishiga baxil va ko'rolmaydigan insonlar sabab bo'lishgan ekan. Komil otaning aytishicha, Sobir oliy maktabda ishlab yurgan chog'larida fitna uyushtirib, uni talabalarga nisbatan ta'magirlikda ayblashadi, ustidan yozib, ishdan haydatishga muvaffaq bo'lishadi. Ya'ni Sobirning iqtidorli yigit bo'lganligi va oliy dargohda ishlaganligini ko'rolmagan kimsalar uning boshiga yetishadi. Bu tuhmat tavqi la'nat bo'lib, uning hech qayerga ishga olinmasligiga va ichkilikka berilib ketishiga sabab bo'lganligi aytib o'tiladi.

Asarda Karomatning orzu-o'ylari uning yoshiga xos, ya'ni oq ot mingan shahzoda uni uzoq-uzoqlarga olib ketishini xohlashi holatida tasvirlangan. Hikoyadagi asosiy mazmun Karomatning kechinmalari tavsifi va uning o'y-xayollarida ifodalanadi. Bu esa o'smir qiz xayollaridagi beg'uborlikka oilalaridagi xunuk vaziyat, tinimsiz janjallarning soya solishida ko'rinadi. Otaning ichkilikka o'ta berilganligi, onasiga va farzandlariga azob berishi Karomat ruhiyatiga shu darajada ta'sir ko'rsatadiki, u otasining tepasiga kelib, uni qo'lidagi issiq kurak bilan kuydirmoqchi ham bo'ladi.

"Qiz dadasiga yaqin yerga bordi. Oyoq-qo'li titradi. Hozir menam yuziga bosaman: oyimni nohaq urgani uchun, ichavergani uchun, odamlarga kulgi bo'lganimiz uchun bosaman! "Ersirab qoldingmi?" – degani uchun ham. Mening munday otam yo'q!.." U dadasining tepasiga keldi. O'zida paydo bo'lgan shafqatsizlikdan hayron edi. Tuyqusdan dadasini yo'tal tutdi, qo'rqinchli yo'taldi. So'ng o'xchidi, boshini ko'tarmoqchi bo'ldi. Qiz qo'rqqanidan ketiga tislani, tut orqasiga yashirindi"³.

Lekin otasining o'z vaqtida o'rnidan turib qolishi vaziyatni o'zgartirib, qizning o'z fikridan tezda qaytishiga sabab bo'ladi. Aksariyat, hikoyadagi dramatik holatlar va keskin vaziyatlar, asosan, Karomatning ichki kechinmalari talqini va o'y-xayollari orqali ifodalanadi. Bu esa hikoyada ilgari surilgan inson ma'naviyati, undagi o'zgarishlar, tushkunlik, uni nazorat qila olmaslik oqibatida yuzaga kelgan muammolar sifatida talqin etiladi.

Hikoyadan anglashiladigan xulosa shundaki, zo'ravonlik zo'ravonlikni tug'diradi. Ota o'z tutumi bilan oilaga zarar yetkazishi natijasida qizi qalbida nafrat paydo bo'ladi. Bu hikoya "yomon ota" yoki "nopok qiz" taassurotini uyg'otmasligi kerak. Yozuvchi hikoya orqali buzilgan oilaviy muhit qanday qilib insonni ichidan sindirib, uni vayron holatga olib kelib qo'yishi mumkinligini ko'rsatgan. Hikoyada umidbaxsh ramziy nuqta bor. Bu – yo'tal tutib, otaning uyg'onib qolishi. Otaning uyg'onishi – hayotda ham o'zgarish imkoni borligini, fojeaning oldini olish mumkinligini anglatadi. Kitobxon shu ramz ortidagi yorug'likni ko'rishni istaydi. Zero, yozuvchi bejiz ota nomiga Sobir ismini tanlamagan. Boshlariga tushgan sinovli kunlarni

³ Саид А. Қария. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 350.

yengishi sabr-qanoatli insonlarning boy ma'naviyatlarida, axloq chegaralarida sobit tura olishlarida degan konseptual g'oya asar mohiyatini tashkil qiladi.

Bibi Robiya Saidovanning "Kuzgi tuflari" hikoyasida insonlardagi mehr-shafqat tuyg'usining o'ziga xos ifodasi haqida so'z boradi. Unda yangi tuflari olishga qurbi yetmagan ayolning poyabzal do'konidagi arzon tuflarini har kuni do'kon yaqinidagi maktabdan o'g'lini olib qaytayotganda kelib ko'rib ketishi aks ettirilgan. Onasining ilojisizligini ko'rgandagi o'g'ilning holati va undagi o'zgarishlar quyidagicha aks ettirilgan:

"Shunda farzand nigohlarini onasining oyoqlariga qadadi. Bola onasining shuncha yillardan beri kiyilaverib orqasi ezilib ketgan, old va yonlaridagi ba'zi joylarning choklari so'kilgan poyabzalini ko'rib, goh volidasi yuziga, goh yerga tikilardi, tikilgani sayin ko'zlaridagi mung quyuglashardi. Va shu lahzalarda bolaning bolaligi yomg'irga ham qaramasdan hech qachon qaytmaydigan bo'lib do'kondan chiqib ketdi.

Ayol o'g'ilning ruhiyatida nimadir chil-chil bo'lganini onalik qalbi bilan sezdi-yu, sotuvchiga minnatdorchilik bildirib, tez-tez qadamlar bilan do'konni tark etdi. Sotuvchi yuragida esa tuyg'ularni donday tortqilayotgan saf-saf chumolilar g'imirlardi.

Do'kon oldiga bugun ham farrosh bulutlar saharlab suv sepgan. Ichkarida esa sotuvchi ayol qo'lidagi kitobning sahifasini ochgan ko'yi bir nuqtadan ko'zini uzmay xayolga tolgan"⁴.

Hikoyadagi "Va shu lahzalarda bolaning bolaligi yomg'irga ham qaramasdan hech qachon qaytmaydigan bo'lib do'kondan chiqib ketdi" jumlasini onasining nochorligini to'liq anglagan holatida undagi ruhiy o'zgarishni ta'sirchan ifodalangan. Chunki bola onasining nochorligidan oriyati qo'zg'aydi va bir lahzada qanday qilib ulg'ayib qolganligini o'zi ham sezmay qoladi. Keyinchalik do'konga bolaning bir o'zi keladigan va onasi kabi u ham o'sha arzon tuflarining oldiga borib, narxini so'raydigan bo'ladi. Tog'asi kelib, do'kondan qimmat tuflarini olib ketib, pulini bermay ketganidan sotuvchi ayol uydagi kitob javonini sotib tuflarining pulini amallab to'lashiga to'g'ri keladi. Yangi tuflari sotib olishga qurbi yetmayotgan ona-bolaga sotuvchi ayolning harchand rahmi kelsa ham yordam berolmayotganini yozuvchi shunday izohlaydi. Ammo iloj topib ona-bola orzusidagi tuflarini olib berganida endi u ayolga tuflarining keragi bo'lmaydi. Chunki u yurolmaydigan bo'lib qolib, qarindoshlari uni nogironlar uyiga joylashtirgan, ular bu yerdan butunlay jo'nab ketgan bo'ladilar. Vijdon azobida qolgan sotuvchi ayolning iztirobi hikoyada juda ta'sirchan talqin etilgan.

"Sotuvchi ayol hech narsani, erkakning ovozi ham, izillab yig'layotgan yomg'ir tovushini ham eshitmadi. To'satdan, ko'z oldi qorong'ulashdi, oyoqlari ixtiyoriga bo'ysunmay yerga o'tirib qoldi. Shu ko'yi loy hovuchlagan qo'llarini yerga urib-urib yig'ladi, bolani o'ylab o'ksinib-o'ksinib yig'ladi, ayolni eslab kuyinib-kuyinib yig'ladi. Bu dardga chidolmagan shamol uvillar, sotuvchi ayolni turg'izmoqchi bo'lib kiyimlaridan tortqilardi. Eshik ostida esa qutidan otilib ketgan bir juft yangi tuflarini yomg'ir ko'z yoshlari bilan yuwardi..."⁵

Sotuvchi ayolning bu qadar zabun holati faqat uning iztirob ichida bo'g'ilayotganligidagina emas, balki ma'naviy-axloqiy tanlovda kechikkani, vaqtini boy berganida hamdir. Aynan yaxshilikka kechikkani ayolning fojeasi bo'ldi. Yaxshilik qilishni istagan, ammo kechikkan inson – ya'ni sotuvchi ayolning ichki ruhiy holati tashqi tabiat manzarasi bilan parallel ravishda ifodalanyapti.

⁴ Саидова Б.Р. Парвоз. – Тошкент: Адиб, 2014. – Б. 21.

⁵ Саидова Б.Р. Парвоз. – Тошкент: Адиб, 2014. – Б.21.

Ona-bola haqidagi noxush xabar ular oldida o'zini aybdordek his etishi, vijdon qiynog'i go'yoki tog'dek yuk bo'lib ayolning yelkasidan bosdi. Hatto u ko'tara olmay yerga o'tirib qoldi. Yozuvchining tragik tasvir yaratish mahorati shunda ko'rinadiki, psixologik parallelizm usuli orqali qahramonning ruhiy inqiroz holatini tabiat bilan uyg'un suratlantirishga harakat qiladi.

Qahramon (ayol)		Tabiat
hech narsani eshitmadi	↔	izillab yig'layotgan yomg'ir
ko'z oldi qorong'ilashdi	↔	dardga chidolmagan shamol
oyoqlari bo'ysinmadi	↔	shamol uvullar
yerga urib-urib yig'ladi	↔	shamol kiyimlarini tortqilardi
o'ksib-o'ksib yig'lardi	↔	yomg'ir ko'z yoshlari bilan yuvardi

Ayolning yerga o'tirib loy hovuchlab yig'lashi – ichki iztirobning zohiridagi ifodasidir. Bu o'rinda “loy” timsoli ham teran ma'no tashiydi. Yozuvchi undan hayotning og'irligi, ifloslanishi, umidlarining parchalanish ramzi sifatida foydalangan.

Yozuvchi iztirobdagi ayol holatini psixologik parallelizm (ruhiy holat va tabiat uyg'unligi), metafora (yomg'ir ko'z yoshlari, izillab yog'ayotgan yomg'ir). Jonlantirish (shamolning harakatlari), ramz (loy qutidan otilib ketgan tufli) vositalarida tasvirlar ekan, yaxshilikka kechikkan insonning o'z-o'ziga bergan axloqiy hukmini ham kitobxonga yetkazgandek bo'ladi. Tasvirdagi yangi tufli timsoli ma'naviy kechikish mohiyatini teranroq ochadi. U – hikoyada o'z vaqtida yetib bormagan, kechikkan mehrning ramzi. Tuflining qutidan otilib ketishi, uni yomg'ir ko'z yoshlari bilan yuvishi tasviri imkoniyatning qo'ldan chiqqani, kechikishning ortga qaytmas oqibatlarini ifoda etadi. Hikoya so'ngidagi tragik tasvir ezgu niyatning o'zi yetarli emas, uni o'z vaqtida, kerak payti amalga oshirish shart degan ma'naviy-axloqiy g'oyaning konseptual mohiyatini o'zida aks ettirgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Аҳмедова М. Ҳикоялар. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа уйи, 2012. – Б. 46.
2. Саид А. Қария. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 350.
3. Саидова Б.Р. Парвоз. – Тошкент: Адиб, 2014. – Б. 21.